

## “RUSTAMXON” DOSTONINING VARIANTLARI

**Xaydarova Mohinur**

*O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti,  
Xalq ijodiyoti: (folklor va etnografiya) mutaxassisligi  
2-kurs magistranti.*

**Annotatsiya.** *Maqolada o‘zbek eposining yuksak namunalaridan biri bo‘lgan “Rustamxon” dostonining variantlari haqida so‘z boradi. Ushbu variantlar orasidagi o‘xshashliklar va farqli tomonlari haqida fikr mulohazalar bildiriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Epos, baxshi, shoir, doston, ertak, motiv, sujet, an‘ana, badihago‘ylik, qissaxon, turkumlik.*

**АННОТАЦИЯ.** *В статье говорится о вариантах эпоса «Рустамхан», одного из лучших образцов узбекского эпоса. Обсуждаются сходства и различия этих вариантов.*

**Ключевые слова:** *Эпос, поэма, поэт, эпос, сказка, мотив, сюжет, традиция, вымысел, новелла, сериал.*

**Annotation.** *The article talks about the variants of the epic "Rustam Khan", one of the best examples of the Uzbek epic. The similarities and differences between these options are discussed.*

**Key words:** *Epic, poem, poet, epic, fairy tale, motive, subject, tradition, fiction, short story, series.*

O‘zbek xalq romanik eposining ajoyib namunalaridan biri hisoblangan “Rustamxon” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti 1937-yilda Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanida atoqli folklorshunos olim Hodi Zarifov tomonidan yozib olingan. Qo‘lyozma lotin imlosida bo‘lib jami olti daftardan iborat bo‘lib, ulardan beshtasi 20x28, bittasi 17x22 sm hajmda. She‘riy misralar soni 2093, nasriy qator soni esa 2060 ni tashkil etadi.

Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining ushbu varianti O‘zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Foklor arxivida 12-inventari raqami ostida qayd qilingan. Shu o‘rinda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li haqida ham biroz ma‘lumot berib o‘tsak: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li 1872-yilda, Jizzax viloyati, Baxmal tumani, Loyqa qishlog‘ida tug‘ilib, 1955-yilda Samarqand viloyati, Bulung‘ur shahrida vafot etgan. Taniqli o‘zbek xalq shoiri, Bulung‘ur dostonchilik maktabining atoqli namoyondasi hamda eng so‘ngi vakilidir.



Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan "Rustamxon" va "Murodxon" dostonlari o'zining yuksak badiiyati bilan o'zbek dostonchilik san'atida alohida o'rin tutadi.

"Rustamxon" dostonining Mallavoy Hoshimov variantini 1935-yilda Namangan viloyati, Kosonsoy tumanidagi Koson qishlog'idan Buyuk Karimov yozib olgan. Bu dostonning 13x20 sm hajmdagi uch daftarga ko'chirilgan qo'lyozmasi 392 she'riy misra, 608 nasriy qatordan iborat bo'lib, lotin imlosida 135 sahifani tashkil etadi. Mallavoy Hoshimning ushbu varianti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivida 594-inventar raqami ostida saqlanadi.<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivida 802-inventar raqami ostida saqlanayotgan baxshi Melash Ermat o'g'li (1890-1945) varianti Boyqo'l Sherbo'tayev tomonidan 1940-yilda Samarqand viloyatining Zomin tumanidan yozib olingan. Qo'lyozma lotin imlosida bo'lib, hajmi 27x36 sm bitta daftarga qayd etilgan. 38 sahifadan iborat ushbu doston 483 she'riy misra va 1026 nasriy qatordan iborat.

Taniqli baxshi Alim Haqqulovdan ham "Rustamxon" dostoni 1962-yilda Samarqand viloyati Ishtixon tumaniga uyushtirilgan folklor ekspeditsiyasi chog'ida yozib olingan. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti Folklor arxivida 1552-inventar raqami ostidagi ushbu variantning ham audio varianti ham folklorshunos olim To'ra Mirzayev tomonidan krill alifbosiga ko'chirilgan nusxasi mavjud. 112 sahifadan iborat nusxa 18x22 sm iborat daftarga ko'chirilgan bo'lib, 1200 she'riy va nasriy qatorni tashkil etadi.

"Rustamxon" dostoni Surxandaryolik ijodkor, O'zbekiston xalq baxshisi Abdunazar Poyonovdan 2013-yil Toshkent shahrida yozib olindi. Garchand mazkur dostonni kuylash voqea dostonchilik an'anasiga xos bo'lmasada, baxshi ushbu dostonni ustozlaridan eshitganini, hamda kitobdan ham o'qiganini e'tirof etadi. Abdunazar Poyonov variantidagi barcha voqealar, sujet yo'nalishi Fozil Yo'ldosh o'g'li variantiga o'xshash ketma-ketlikda deyarli aynan takrorlanadi. Abdunazar baxshi varianti ikki jihati bilan e'tiborlidir. Birinchidan, ma'lum bir hududga xos emas deb qaralgan dostonning baxshilari ijrosida mavjudligi voqea ijodkorlarining epik repertuari qayta o'rganilishini taqazo etadi. Ikkinchidan, baxshi o'zi e'tirof etganidek, ham ustozlar an'anasini davom ettirgan holda, ham kitobdan foydalanib doston yaratish bu so'ngi davr baxshichilik an'anasiga xos xususiyatdir. Mana shu jarayonning o'zi bu holatning boshqa dostonlar misolida ham yanada chuqurroq o'rganilishi, tadqiq etish lozimligini urg'ulaydi. Bu holat bugungi jonli jarayon haqidagi tasavvurlarimizga oydinlik kiritadi.



“Rustamxon” dostonining ertak varianti ham mavjud bo’lib, uni Oqdaryo tumani markazida yashovchi oltmish olti yoshli Saydamin Zubaevdan Rayhona Nasrullayeva yozib olgan.

“Rustamxon” dostoni N.V Kidaysh- Pokrovskaya va A.S. Mirbadalovalar tomonidan rus tiliga tarjima qilingan bo’lib, 1972-yilda Moskvada rus va o’zbek tillarida chop etilgan.

“Rustamxon” dostoni garchand ommaviy nusxada chop etilmagan bo’lsada, turk tiliga ham tarjima qilinib, Egey universiteti nashriyoti tomonidan kam nusxada o’zbek va turk tillarida nashr etilgan. Ushbu tarjima filologiya fanlari doktori o’zbek folklorining xorijdagi tadqiqotchilaridan biri Selami Fidakor tomonidan amalga oshirilgan.

Ma’lumki, O’zbekiston Respublika Fanlar akademiyasi huzuridagi O’zbek tili, adabiyoti va folklori institutining Folklor arxivida “Rustamxon” dostonining qissaxon baxshi tomonidan yozib olingan varianti ham mavjud. Bu haqida hech bir ilmiy manbada ma’lumot uchramaydi. Chunki “Rustamxon” dostonini tadqiq etgan bizdan oldingi tadqiqotchilar ham dostonning ushbu variantidan bexabar bo’lishgan. Mazkur Folklor arxivida 1702-inventar raqami ostida saqlanayotgan “Rustamxon” dostonini 1975-yilda Samarqand viloyatining Qo’shrabot tumanidagi Qorakisa qishlog’ida yashagan qissaxon baxshi Rahmatulla Yusuf o’g’li o’z qo’li bilan yozib topshirgan. Qo’rg’on dostonchilik maktabi an’analarining davomchisi hisoblangan Rahmatulla Yusuf o’g’li repertuaridagi bu doston qo’lyozma arab alifbosiga asoslangan eski o’zbek yozuvida yozilgan bo’lib, umumiy hajmi 274 sahifadan iborat.

Bu variantlar tahlili shuni ko’rsatadiki, “Rustamxon” dostoni nafaqat Fozil shoir ijodida, balki o’zbek dostonlari orasida ham motivlar rang-barangligi, sujet qurilishi va yuksak badiiyati bilan alohida ajralib turadi. Shuning uchun bu doston ko’plab tadqiqotchilarning e’tiborini o’ziga jalb qilgan.

Taniqli folklorshunos Kidaysh Pokrovskaya Moskvada chop etilgan “Rustamxon” nomli kitobning so’zboshisida<sup>2</sup> doston va uning variantlari haqida fikr bildirib o’tadi. Shu o’rinda shuni aytib o’tish joizki, Kidaysh Pokrovskaya dostonni imkon qadar to’la chop etishga harakat qilgan bo’lsada, hozirgi mukammal variantdan ancha farqliklarga ega. Bundan tashqari olimaning o’zi va boshqa mualliflar bilan birgalikda yozgan maqolalari ham mavjudki, ular bevosita “Rustamxon” dostoni tahliliga bag’ishlanmagan bo’lsada, undagi motiv va sujet qurilishi xususiyati, boshqa dostonlar bilan tipologik o’xshashliklari haqida so’z boradi.<sup>3</sup>



Tadqiqotchi Mahmuda Obidova “Rustamxon” turkumi dostonlari mavzusida nomzodlik ishini himoya qilgan. Muallif xuddi shu nomdagi ilmiy risola ham chop ettirgan.<sup>4</sup> H. Korogli o‘zining “O‘zbek adabiyoti” nomli risolasida “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Kuntug‘mish eposlari bilan, bir qatorda “Rustamxon turkumligiga kirgan dostonlarni ham tilga olib o‘tadi.<sup>4</sup>

Tadqiqotchi A G‘afforova esa o‘zining “Rustamxon” dostonida sinonimlarning ishlatilishi” nomli maqolasida dostonning til xususiyatlarini, matn badiiyatida sinonimlarning tutgan o‘rni haqida fikr yuritadi.<sup>5</sup> Bundan tashqari, “Rustamxon”ning turli yillarda chop etilgan nashrlarning so‘zboshilarida doston to‘g‘risida mulohazalar bildirilgan.<sup>6</sup>

Yuqorida aytganimizdek, doston turli yillarda, ko‘plab chop etilgan. Nashr jarayonlarining o‘zi bizga ko‘plab qiziqarli ma‘lumotlarni beradi. Doston dastavval Xodi Zarifov tomonidan 1939-yilda tayyorlangan “O‘zbek folklori” nomli xrestomatiyaga kiritilgan.<sup>7</sup> Bu kitobdan joy olgan barcha xalq og‘zaki ijodi namunalari lotin alifbosida bo‘lib, Xodi Zarifov tomonidan saralab, tanlab, chop etilgani bilan qimmatlidir. Mazkur nashrda “Rustamxon” dostonining katta bir bo‘lagi kitobxonlar hukmiga havola etilgan.

Bolalar adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri Zafar Diyor 1942-yilda dostonning qisqartirilgan bir variantini o‘quvchilar hukmiga havola etgan.<sup>8</sup> Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lining 1949-yildagi “Saylanma”sidan baxshining boshqa asarlari qatori “Rustamxon” dostoni ham joy olgan.<sup>9</sup> Mazkur doston 1950-1958 yillar orasida X. Zarifov, Z. Karimova, H. Rasul, M. Afzalovlar tomonidan bir necha marta, 1985-yilda folklorshunos olim M. Murodovning so‘zboshisi bilan birgalikda “Rustamxon” dostoni qayta chop etilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. 11-tom. Go‘fur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. / Toshkent-2018. B. 513-515.
2. Rustamxon. O‘zbekskiy geroicheskiy epos. K. Pokrovskaya.-M: Nauka, 1972.
3. Obidova. M. “Rustamxon” turkumi dostonlari. / Toshkent: Fan. 1982
4. Korogli. X. O‘zbekskaya literature. –M: 1976. B. 54-59
5. G‘afforova. A. “Rustamxon” dostonida sinonimlarning ishlatilishi. Ilmiy to‘plam. / Xo‘jand, 1964. B. 123-144
6. Karimov. Z. So‘zboshi. “Rustamxon” dostoni. Aytuvchi: Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li.





7. O'zbek folklori. Antologiya. / Toshkent. 1939. B. 166-181.
8. Rustamxon. Doston. Aytuvchi: F.Yo'ldosh. Nashrga tayyorlovchi: Zafar Diyor. / Toshkent: Badiiy adabiyot, 1942.
9. Rustamxon. Doston. Fozil Yo'ldosh o'g'li. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi: X. Zarifov. / Toshkent: Badiiy adabiyot, 1949. B. 286-290.

